

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025 noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 265 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abdusalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoyeva Mehriyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOB VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
Soliq siyosati orqali aholi daromadlarini rag'batlantirish mexanizmlari.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	



SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI

Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li

Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti tayanch doktoranti

suhrobjonuzoqov96@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq siyosati orqali aholi daromadlarini oshirish va rag'batlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Soliq imtiyozlari, progressiv soliq stavkalari va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini ko'paytirishning iqtisodiy hamda ijtimoiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, soliq siyosati orqali aholi turmush darajasini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, aholi daromadlari, rag'batlantirish, iqtisodiy o'sish, moliyaviy barqarorlik, bandlik, davlat siyosati, budjet siyosati.

Abstract. This article analyzes the mechanisms for stimulating population income growth through tax policy. It examines the impact of tax incentives, progressive tax rates, and small business support on increasing household incomes. The study also provides scientifically grounded recommendations for improving the tax system to ensure sustainable economic development and enhance the population's standard of living.

Keywords: tax policy, population income, incentives, economic growth, financial stability, employment, government policy, fiscal policy.

Аннотация. В данной статье анализируются механизмы стимулирования роста доходов населения через налоговую политику. Рассмотрено влияние налоговых льгот, прогрессивных ставок и поддержки малого бизнеса на повышение уровня доходов граждан. Также обоснованы направления совершенствования налоговой системы для обеспечения устойчивого экономического развития и повышения уровня жизни населения.

Ключевые слова: налоговая политика, доходы населения, стимулирование, экономический рост, финансовая устойчивость, занятость, государственная политика, бюджетная политика.

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, soliq siyosati nafaqat davlat budjeti daromadlarini shakllantirish vositasi, balki aholi iqtisodiy faolligini rag'batlantiruvchi muhim mexanizm sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlari aholi turmush darajasini oshirish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, shu orqali aholi daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan. Soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish, progressiv soliq stavkalarini joriy etish hamda ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat turlariga imtiyozlar berish orqali iqtisodiy faollikning o'sishi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, soliq siyosati orqali aholi daromadlarini rag'batlantirish masalasida tizimli yondashuvni shakllantirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va soliq to'lovchilarning ishonchini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va tenglikni mustahkamlaydi.

Mazkur maqolada soliq siyosatining aholi daromadlariga ta'siri, rag'batlantirish mexanizmlarining amaldagi holati va ularni takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shu orqali aholi daromadlarini barqaror oshirish hamda soliq siyosatini samarali amalga oshirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi daromadlarini oshirish va ularni rag'batlantirish masalasi iqtisodiy nazariyada ham, amaliy siyosatda ham muhim o'rinni egallaydi. Shu bois, so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan soliq siyosatining aholi daromadlariga ta'siri keng miqyosda o'rganilgan.

Masalan, A. Smit va D. Rikardo kabi klassik iqtisodchilar o'z asarlarida soliqlarning iqtisodiy faollikka, ishlab chiqarish hajmiga va aholining real daromadiga ta'sirini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, soliq siyosati iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash orqali jamiyatdagi tenglikni ta'minlash bilan birga, ishlab chiqaruvchilarning rag'batini saqlab qolishi kerak.

J. M. Keynes esa soliq siyosatini iqtisodiy siklni tartibga solish vositasi sifatida baholagan. Uning nazariyasida soliqlarni kamaytirish orqali iste'mol va investitsiyalarni rag'batlantirish natijasida iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash g'oyasi ilgari surilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan, J. Stiglits, R. Masgrev, M. Fridman kabi olimlar soliq tizimining ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi o'rni va samaradorligini chuqur tahlil qilgan. Ular soliq siyosati orqali past daromadli aholiga qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar joriy etish, shuningdek, yuqori daromadli qatlamlar uchun progressiv soliqlarni tatbiq etish orqali iqtisodiy tenglikni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydilar.

O'zbekiston olimlari orasida X. Abdurahmonov, A. Shodmonov, O. Jo'rayev, B. Xodiev kabi iqtisodchilar soliq siyosatini takomillashtirish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida soliq yukining maqbullashtirilishi, soliq imtiyozlarining samaradorligi hamda ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat turlarini rag'batlantirish masalalari chuqur o'rganilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan soliq islohotlari, xususan, jismoniy shaxslar daromad solig'ining kamaytirilishi, yagona ijtimoiy to'lov stavkasining pasaytirilishi va kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliq tizimining joriy etilishi aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Thomas Piketty (2014) o'zining "Capital in the Twenty-First Century" asarida daromadlar tengsizligi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikka tahdid solishini ta'kidlab, adolatli soliqqa tortish tizimi va qayta taqsimlovchi siyosatlarning muhimligini asoslab beradi. Shu bilan birga, Atkinson (2015) ham iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish orqali barqaror o'sishni ta'minlash mexanizmlarini tahlil qilgan.

Rivojlangan davlatlar tajribasida aholi daromadlarini oshirishda ta'lim tizimi va inson kapitali alohida o'rin tutadi. UNDP (2022) ma'lumotlariga ko'ra, Skandinaviya mamlakatlari (Norvegiya, Shvetsiya, Daniya)da inson kapitaliga investitsiyalar YAIMning 7–8 foizini tashkil etib, bu mamlakatlarda o'rtacha ish haqi darajasini va ijtimoiy tenglikni yuqori saqlab turadi.

Shuningdek, Goldin & Katz (2008) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda AQSh misolida raqamli iqtisodiyot va texnologik innovatsiyalar mehnat unumdorligini oshirishi bilan birga, yuqori malakali ishchi kuchi uchun daromadlarni tez sur'atda ko'paytirayotganligi aniqlangan.

Milliy miqyosda, O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda (A. Mamatov, 2022; B. Xolmatov, 2023) aholi daromadlarini oshirishning mahalliy omillari — bandlik siyosatini takomillashtirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, raqamli iqtisodiyotga o'tish va soliq imtiyozlarini kengaytirish bilan bog'liq jihatlari yoritilgan.

Bir so'z bilan aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlarini oshirish kompleks iqtisodiy strategiyalar orqali amalga oshiriladi. Bu strategiyalar inson kapitali rivoji, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish hamda adolatli soliqqa tortish mexanizmlarini joriy etishga tayanadi. O'zbekiston uchun bu tajriba milliy iqtisodiyotda yuqori daromadli, innovatsion va inklyuziv modelni shakllantirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda soliq siyosati orqali aholi daromadlarini rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy modellashtirish usullari tashkil etdi.

Avvalo, tizimli tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari, huquqiy-me'yoriy asoslari va ularning aholi daromadlariga bevosita hamda bilvosita ta'siri o'rganildi. Shuningdek, soliq yukining kamaytirilishi, imtiyozlarning joriy etilishi va soliq ma'muriyatchiligining raqamlashtirilishi jarayonlari tizimli tarzda tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali O'zbekiston soliq tizimi rivojlangan davlatlar — AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya hamda Skandinaviya mamlakatlari tajribalari bilan solishtirildi. Ushbu solishtirish orqali har bir mamlakatda soliq siyosati qanday yo'nalishlarda aholi daromadlarini rag'batlantirishi aniqlanib, O'zbekiston sharoitiga mos xulosalar chiqarildi.



Empirik usullar asosida O'zbekiston soliq tizimidagi mavjud statistik ma'lumotlar (2020–2025-yillar oralig'ida) tahlil qilinib, soliq islohotlarining real sektor, kichik biznes va aholi daromadlariga ta'siri baholandi. Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi va Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida soliq tushumlari, bandlik darajasi va o'rtacha ish haqi ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan.

Bundan tashqari, ilmiy kuzatuv va kontent-tahlil usuli yordamida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari, Prezident farmonlari va Soliq kodeksidagi o'zgarishlar o'rganilib, soliq siyosatining amaldagi natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida deduksiya va induksiya usullari yordamida soliq siyosatining umumiy nazariy asoslaridan boshlab, O'zbekiston amaliyoti misolida xususiy natijalar chiqarildi. Natijada soliq siyosatining aholi daromadlarini oshirishdagi o'rni, ijtimoiy tenglikni ta'minlashdagi roli va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri aniqlab berildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida tadqiqotning asosiy gipotezasi ilgari surildi:

“Soliq siyosatini samarali tashkil etish, soliq yukini maqbullashtirish va raqamli boshqaruv tizimini rivojlantirish orqali aholi daromadlarini barqaror oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlash mumkin.”

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq siyosati muhim rol o'ynaydi. O'z navbatida, bu uning maqsadga muvofiqligi zarurati bilan chambarchas bog'liqdir. Soliq siyosati mamlakat budjet siyosatining ajralmas tarkibi bo'lib, budjetning daromad bazasini shakllantirishga xizmat qiladi va davlatning global iqtisodiy strategiyasi bilan to'liq bog'liqdir. Shu sababli, bozor iqtisodiyotini shakllantirish va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga qaratilgan iqtisodiy strategiya doirasida O'zbekistonda moslashuvchan soliq siyosati amalga oshirilmoqda.

U ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish va iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, iqtisodiyotga investitsiyalarni rag'batlantirish, kichik va o'rta korxonalar faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositalaridan biri soliqlardir. Ularning yordamida davlat jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun mablag' yig'adi, tadbirkorlikning ustuvor turlarini rag'batlantiradi va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qiladi.

Hozirgi kunda respublikamiz soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash, budjet daromadlarini shakllantirishda resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish, soliq tizimining soddaligiga erishish va davlat xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgandir. Mamlakat iqtisodiyoti soliq tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, iqtisodiyotdagi o'zgarishlar soliq tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltiradi va aksincha.


Soliqlarni qo'llash idoraviy bo'ysunishi, mulkchilik shakllari va korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, milliy manfaatlarning tadbirkorlar va korxonalarning tijorat manfaatlari bilan aloqasini ta'minlash va boshqarishning iqtisodiy metodlaridan biridir. Soliqlar orqali tadbirkorlik subyektlarining davlat va mahalliy budjetlar, banklar, shuningdek, yuqori darajadagi tashkilotlar bilan integratsiyasi va investitsiyalar uchun global raqobat yuzaga keladi. Bunday sharoitda boshqa ko'rsatkichlar teng bo'lib, raqobatdosh davlatlarga nisbatan soliq yukining ma'lum bir oshishi yoki kamayishi investitsiyalarning oqimini rag'batlantirishi yoki susaytirishini bildiradi.

Shunday qilib, investitsiya oqimlarini qayta taqsimlashda raqobat omillaridan biri iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va uning tarkibiy elementi sifatida puxta o'ylangan soliq siyosatidir. Har bir mamlakat soliq siyosatining mohiyati davlatning milliy maqsadlari, mulkchilikning turli shakllari va siyosiy tizim o'rtasidagi munosabatlar kabi omillar bilan belgilanadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi va milliy soliq siyosati davlat hokimiyati va ma'muriyatlari, ya'ni hozirgi siyosiy kuchlar tomonidan ishlab chiqilmoqda.

Davlatning soliq siyosati davlatning iqtisodiyotga aralashuvi turi, darajasi va maqsadini aks ettiradi va vaziyatga qarab o'zgaradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bu soliqlar sohasidagi davlat choralari tizimi va moliyaviy strategiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Soliq siyosatining mazmuni va vazifalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, hokimiyatdagi ijtimoiy guruhlar, milliy iqtisodiyotning rivojlanishini belgilovchi strategik maqsadlar va davlat moliya sohasidagi xalqaro majburiyatlar bilan belgilanadi.

Soliq siyosati davlat tomonidan soliqlar va yig'imlarning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini ta'minlashga qaratilgan, moliyalashtirishni ta'minlaydigan hajmlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.

Soliq siyosatining vazifalari davlatni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, umumiy iqtisodiyotni tartibga solish uchun sharoit yaratish, bozor munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan aholi daromadlari farqlarini kamaytirishdan iboratdir. Soliq siyosatining barcha vazifalarini uch asosiy guruhga ajratish mumkin: (1-chizma).

1-chizma. Soliq siyosatining vazifalari¹

Fiskal - davlatni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;


Iqtisodiy - iqtisodiy rivojlanishni oshirish va biznesni rag'batlantirish;

Nazorat - xo'jalik yurituvchi subyektlarni kuzatish.

Hozirgi bosqichda soliq siyosatining muhim vazifalaridan biri soliq to'lovchining ixtiyoridagi mablag'lar va soliq hamda budjet mexanizmlari orqali qayta taqsimlanadigan mablag'lar o'rtasida optimal nisbatni ta'minlashdir. Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning faol moliyaviy-iqtisodiy faoliyati va iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoit yaratadi.

Soliq siyosati davlatning boshqa sohalardagi siyosati kabi soliq mexanizmining samarali amal qilishi hamda soliq tizimining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy asoslangan kontseptsiyasiga ega bo'lishi lozim. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda soliq siyosatining turli usullaridan foydalanadi. Soliq siyosati iqtisodiy va moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi bo'lganligi bois, davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatining usul va shakllaridan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi.

Soliq siyosatining quyidagi shakllari mavjud (2-chizma).

2- chizma. Soliq siyosatining shakllari²

Soliq siyosatining shakllaridan biri yuqori soliqlar bo'lib, ushbu shaklda davlat ko'plab soliq turlarini va yuqori soliq stavkalarini joriy etadi, soliq imtiyozlarini esa imkon darajasida qisqartiradi. Bunday soliq siyosati natijasida soliq to'lovchilarda amalda jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga hech qanday ishonch qoldirmaydi. Shu

¹ <http://www.soliq.uz> olingan ma'lumotlar nijasida muallif tomonidan tayyorlandi.

² <https://www.collegesidekick.com/study-docs/1251497> olingan ma'lumotlar nijasida muallif tomonidan tayyorlandi

sababli, soliq siyosatining ushbu shakli ham ko'pincha davlatning rivojlanishi shuni taqozo etgan paytlarda, ya'ni urush yoki iqtisodiy tanglik sharoitlarida qo'llaniladi.

Soliq siyosatining yana bir shakli iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan soliqlar hisoblanib, davlat bunday soliq siyosati orqali soliqlarning nafaqat fiskalligini, balki soliq to'lovchilar manfaatlarini ham hisobga oladi. Bunday sharoitda davlat birinchi navbatda o'z xarajatlarini, ayniqsa ijtimoiy xarajatlarni qisqartiradi. Bunday siyosatdan ko'zlangan asosiy maqsad — qulay soliq muhitini yaratish orqali investitsion faollikni rag'batlantirish va kapital jamg'arish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Bunday soliq siyosati XX asrning 80-yillarida AQShda samarali joriy etilgan bo'lib, reyanomika nomini olgan.

Soliq siyosatining uchinchi shakli — oqilona soliqlar bo'lib, bu birinchi va ikkinchi shakllar o'rtasidagi muvozanatli yondashuvni ifodalaydi. Ushbu soliq siyosatining mohiyati shundan iboratki, yuridik va jismoniy shaxslarga yuqori soliqlar o'rnatilishi bilan bir vaqtda fuqarolarning ijtimoiy himoyasi ham kengaytiriladi, davlatning ijtimoiy dasturlari kuchaytiriladi.

Milliy iqtisodiyotni qurish konsepsiyasiga ega davlatlarning soliq siyosatiga xos xususiyatlari — iqtisodiy muammolarni aniq belgilash, maqsadlarni tartiblash, islohotlar samaradorligini tahlil qilish va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda siyosatni moslashtirishdan iborat.

Amalda soliq siyosati soliq mexanizmi orqali, ya'ni tashkiliy-huquqiy va moliyaviy vositalar majmui yordamida amalga oshiriladi. Davlat soliq siyosatining yuqori samaradorligini ta'minlash uchun to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlar nisbatini saqlab turishi zarur. Soliq stavkalarini kamaytirish yoki ayrim soliqlarni bekor qilish budjet daromadlarining kamayishiga olib keladi, buni esa samarali soliq ma'muriyati orqali oldini olish mumkin.

Soliqlar davlat va mahalliy budjetlarning daromad qismini tashkil etadi va asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Shu bilan birga, soliqlar korxonalarning tadbirkorlik shartlariga ta'sir qiladi va iqtisodiy jarayonlarni tartibga soladi. Soliqlar orqali davlat ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qiladi, nazorat funksiyasini bajaradi va konstitutsiyaviy huquqlarni kafolatlaydi.

2018-yil 29-iyundagi Prezident farmoni hamda 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi Soliq kodeksi soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish va soliq tizimini modernizatsiya qilishni nazarda tutadi. Soliq siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama ishonch va hamkorlik asosida shakllanadi. Soliq qonunchiligi qanchalik qat'iy bo'lsa, soliq rejalashtirish va "soya" iqtisodiyoti o'rtasidagi bog'liqlik shunchalik shaffof bo'ladi.

Shunday qilib, budjet va soliq siyosati, shuningdek, boshqa iqtisodiy tartibga solish vositalari iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va aholining daromadlarini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishi bozor munosabatlarini shakllantirish va tartibga solishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda bir qator ilmiy asoslangan soliqlar joriy etildi hamda mavjud soliq tizimi tubdan qayta tashkil etildi.

Ushbu davrda soliq siyosati nafaqat daromadlarni yig'ish vositasi sifatida, balki iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh bozor muhitini yaratish vositasi sifatida ham xizmat qildi.

Keyinchalik, soliq siyosatining e'tibori joriy etilgan soliqlarni samarali qo'llash va nazorat qilishga qaratilib, soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi tegishli idoralar va muassasalarni tashkil etishga yo'naltirildi.

Shu tariqa, davlat soliq siyosati ham iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, ham tadbirkorlikni rag'batlantirish, ham esa budjet daromadlarini barqaror ta'minlashni nazarda tutgan strategik vosita sifatida shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. <https://lex.uz/m/acts/4674902>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni.
4. Temirqulov, A., & Qudbiyev, N. (2022). Iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda soliq siyosati o'rnini. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 121–127.
5. Qudbiyev, N. T., Raximjonov, U. R. O'g'li, & Razaqova, D. A. Q. (2022). Soliq organlarida raqamli texnologiyalarning rolini oshirish ahamiyati. Scientific Progress, 3(1), 927–933.
6. Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A. (2022). Soliq yukining biznes uchun ahamiyati. Scientific Progress, 3(3), 699–708.



7. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy hisobotlardan moliyaviy menejmentda foydalanish masalalari. *Scientific Progress*, 3(4), 1030–1037.
8. Asrorbek, B. (2023). Development of the Financial Management System in Uzbekistan. *International Journal of Management and Economics Fundamental*, 3(03), 25–31.
9. Tohirovich, Q. N. (2023). Specifics of Accounting for Lease Operations of the Organization. *Journal of Sustainability in Integrated Policy and Practice*, 1(2), 31–38.
10. Avazxonovna, K. S. (2024). Principles and Features of the Development of Fixed Asset Accounting. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 12–18.
11. Khatamovna, R. S. (2023). The Economic Importance of Cost Classification in Enterprises. *GWALIOR Management Academy*, 193.
12. Ibragimovna, K. K. (2024). The Role of Current Asset Management in the Success of an Enterprise. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(1), 38–43.
13. Эрматов, А. А. (2022). Отражение арендных операций в финансовой отчётности в соответствии с правилами МСФО. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 108–112.
14. Ibragimovna, K. K. (2023). Comparative Characteristics of Management and Financial Accounting. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 1–7.
15. Jumakulov, Z. I. (2023). The Role of Public-Private Partnership in Increasing the Level of Accommodation of Students in Higher Education Institutions of the Republic. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(11), 163–167.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100